

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14882638>

## ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

**To'liboyeva O'g'iljon Anvar qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

**M.A.Hamrayev**

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

*Annотatsiya.* Maqolada ona tili darslarida foydalaniladigan ta'limiy vositalar, ya'ni dars samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan metodlar haqida ma'lumotlar berilgan. Bunda "Insert" metodi haqida alohida tavsiyalar mavjud.

*Kalit so'zlar:* Usul, "Insert" jadvali, metod, bilim, tushunchalar tahlili.

*Аннотация.* В статье представлена информация об образовательных средствах, используемых на уроках родного языка, а именно о методах, способствующих повышению эффективности уроков. Особое внимание уделено рекомендациям по методу "Insert".

*Ключевые слова:* метод, таблица "Insert", методика, знания, анализ понятий.

*Annotation.* The article provides information about educational tools used in mother tongue lessons, specifically methods that enhance the effectiveness of the lessons. It includes specific recommendations regarding the "Insert" method.

*Keywords:* method, "Insert" table, methodology, knowledge, concept analysis.

Ona tili darslarida ta'limiy vositalardan foydalanish dars sifatini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'limiy vositalardan "BBB" metodi, "Klaster" usuli, "Aqliy hujum", "Sirli sandiqcha", "Zinama-zina", "Bumerang", "Charxpalak" texnologiyalaridan foydalangan holda dars o'tish yanada qiziqarli bo'ladi. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "Klaster", "Bo'g'inlar zanjiri", "BBB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Quyidagi **insert** jadvalini ko'rib chiqamiz.

Insert so'zi inglizcha *joylashtirmoq, belgi qo'yimoq* ma'nosini beradi.

- mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi;
- oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi. O'qish vaqtida olingan ma'lumot yakka tartibda taqsimlanadi: matnda belgi qo'yilgan mos ravishda jadval ustunlariga "joylashtiriladi":

V – mavzu haqida avvaldan olingan ma'lumot.

- mavzu haqidagi ma'lumotga qarama-qarshi ma'lumot.

+ mavzu bo'yicha yangi ma'lumot sanaladi.

? tushunarsiz qo'shimcha ma'lumot.

INSERT jadvali

V — + ?

Misol qilib: Gap bo'laklari mavzusini oladigan bo'lsak, o'quvchilarga biror gap beriladi.

”Kitob javonda turibdi.”

Gapning bo'laklarini aniqlash uchun jadval qilsak;

V: Kesim bu gapning asosiy bo'lagi.

-: Faqat fe'l kesim bo'ladi deb o'ylagan edim.

+: Ikkinchi darajali bo'laklardan biri aniqlovchi ekanini bilib oldim.

?: Aniqlovchi bilan to'ldiruvchi qanday farqlanadi?

Bu misol orqali insert jadavli qay tartibda tuzilishini bilib oldik.

Insert o'quvchilarda avvalgi bilimlarni mustahkamlash, oldin tushunmagan ma'lumotlarni tushunib, yangi ma'lumotlar to'plashda samarali yordam beradi. Bu metod orqali o'quvchilar bilim darajasini oshirish va faol fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Insert - o'zlashtirishning majmual vazifalarini yechish va o'quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usuli hamdir.

**"Sirli sandiqcha" metodi.** Sirli sandiqcha metodi ham o'quvchining mantiqiy fikrlashini shakllantirishga yordam beradi. Hamda o'quvchilarni darsga jalb qilish, qiziqishini oshirish va faol ishtirokini ta'minlash uchun qo'llanadigan interaktiv ta'lim usulidir. Ushbu metoddan foydalanish uchun o'quvchilar guruhlariga bo'linadi. O'qituvchi doskaga 4 ta mavzu nomini ilib ular haqida hech qanday ma'lumot yozmaydi. Masalan, so'z turkumlari mavzusi o'tilganda ot, sifat, son, fe'l mavzulari kabi. Sirli sandiqchada esa so'z turkumlariga oid ma'lumotlar, misollar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar bu ma'lumotlar qaysi so'z turkumiga tegishli bo'lsa qog'ozni shu so'z turkumi tagiga qistirib boradi. O'qituvchi bajarilgan ishni tahlil qiladi va rag'bat kartochkalari beradi. Eng ko'p rag'bat kartochkasi to'plagan guruh g'olib bo'ladi.

**"Tushunchalar tahlili" metodi.** Bu metod quyidagicha mulohaza qilinadi. Nazorat ishi yakunlanib, baholar e'lon qilingandan so'ng, har bir o'quvchi nazorat daftarida o'qituvchi tomonidan tekshirilgan va kamchiligi tuzatilgan so'zlarni ko'chirib yozadi. Bu metod ham o'quvchini hushyorlikka chorlash bilan bir qatorda o'z xatosini o'z vaqtida tushunishga va bu xatoni boshqa takrorlamaslikka olib keladi. Bu orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari yanada chuqurlashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida ta'limiy vositalardan foydalanish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Turli xil ko'rgazmali materiallar, interaktiv texnologiyalar va amaliy topshiriqlar o'quvchilarning

darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashni shakllantiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Shu sababli, zamonaviy ta'limda bunday vositalardan keng foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini yuksaltiradi, balki dars sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.Hamrayev va boshqalar. Ona tili va bolalar adabiyoti (1-qism. Ona tili). Toshkent -2022.
2. Internet resurslari (Ziyonet.uz, kitob.uz).
3. N. G'.Yo'ldoshova O'zbek tilini o'qitish metodikasi .Toshkent, 2020